

"O'ZKIMYOSANOAT" AJ TURKIYANING "YEO TEKNOLOJI ENERJI VE ENDÜSTRI A.Ş." KOMPANIYASI BILAN UCHRASHUV O'TKAZDI

// 30 March 2022 yil

<https://pda.uzkmyosanoat.uz/oz/press/news/yeo-teknoloji-enerji-ve-endustri>



Joriy yilning 30-mart kuni "O'zkimyosanoat" Ajda Turkiyaning "YEO Teknoloji Enerji ve Endüstri A.Ş." kompaniyasi vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Avtomatlashtirish, elektralashtirish, "yashil" elektrostansiyalar qurish, raqamlashtirish va muhandislik kabi yo'naliishlarda xizmat ko'rsatuvchi kompaniya vakillari dastlab o'zlarining BAA, Ukraina, Ozarbayjon, O'zbekiston, Turkiya va boshqa davlatlarda amalga oshirgan loyihalarining taqdimotini o'tkazishdi. Uchrashuv davomida kimyo sanoatini avtomatlashtirish va raqamlashtirish shu bilan birga, sohaga "yashil" energetikani keng joriy qilish imkoniyatlari ham ko'rib chiqildi.

Yakunda "YEO Teknoloji Enerji ve Endüstri A.Ş." kompaniyasi hozirgacha O'zbekistonda ham bir nechta yirik loyihalarda muvaffaqiyatli ishtirok etganligi hamda zarur imkoniyat va tajribaga egaligini inobatga olgan holda, kompaniya ishchi guruhi tomonidan "Navoiyazot" AJ hamda "Maxam-Chirchiq" AJ korxonalaridagi ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirish maqsadida avtomatlashtirish,

raqamlashtirish va eng so'nggi zamonaviy innovatsion yechimlarni ishlab chiqish borasida o'r ganishlar olib borilib, takliflar tayyorlashga kelishildi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati